

BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA METODLARI.

Ergashova Mashyona Alisherovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ijtimoiy xayotimizdagi o'zgarishlar mustaqillik, respublikamizdagi demokratiyaning tantanasi, xuquqiy davlat tuzimiga intilish psixologiyaning qonuniyatlari va ilmiy materiallarini o'rganish xamda ulardan turmushda foydalanishni talab kiladi. Psixologiya fani tarmoqlaridan biri – bolalar psixologiyasidir*

Kalit so'zlar: *kuzatish metodi, test metodi, eksperiment metodi, suhbat metodi, test metodi, psixologik xususiyat.*

Bolalar psixologiyasida bolaning tugilgan paytidan boshlab, to maktab yoshiga etgunga kadar psixik jixatdan tarakkiy etishi konuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarning tarkib topishini urganadigan fandır. Bola inson sifatida tashki jixatdan katta yoshli odamlarga uxshasa xam, uzining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jixatdan katta yoshli odamlardan keskin fark kiladi.

Xozirgi kunda bolalar psixologiyasining oldida bir qancha muxim vazifalar turadi.

Ular kuyidagilar:

1. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bulgan qonuniyatlarni o'rganish.
2. Bola psixologik tarakkiyotiga faol ta'sir kiluvchi omillarni o'rganish.
3. Turli yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish konuniyatlarini o'rganish.
4. Boladagi shaxsiga xos bulgan psixologik xususiyatlarni o'rganish.
5. Bolani maktab ta'limiga tayyorlash.
6. Maktabda muvaffakiyatli ukishi uchun bolaning akliy jarayonlarini faollashtirish.
7. Ta'lim jarayonida bolaning mustakil, ijtimoiy faol tafakkurini shakllantirish.
8. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus kobiliyatlarini shakllantirish.
9. Ta'lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berish.

Bolalar psixologiyasi predmetining muxim tomonlaridan biri – turli yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, dikkat, xotira, nutk, tafakkur, xissiyot, xayol va iroda kabi psixik jarayonlarining namoyon bulishi, tarakkiy etishi xamda takomillashuvining konuniyatlarini urganishdan iboratdır. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarini kandy tarkib toptirishni chukur analiz kiladi. Bunda bolalar psixologiyasining bolalar shaxsini tarkib topishiga faol ta'sir kiluvchi omillar kiziktiradi.

Ma'lumki, bola shaxsi va uning psixologik xususiyatlari kandydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta'sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omilning konuniy



ta'sir etishda tarkib toptiradi. Ana shu muxim konuniy tarzda ta'sir kiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shugullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik konuniyatlarning tarkib topishi kabi muxim ilmiy malakalarni urganib, mamlakatimizda yangi tipdagi odamlarni tarbiyalab etishtirish konuniyatlarini ochib beradi.

Bolalar psixologiyasi uzining murakkab predmetini urganishda falsafaga tayanadi. Ma'lumki, tabiat va jamiyatdagi narsa xamda xodisalar tarakkiyotining eng umumiy konuniyatlarini urganadi, xamda inson ongining ijtimoiy xayotga boglikligini isbotlab beradi.

Tabiat va jamiyat tarakkiyotining umumiy konuniyatlaridan xabardor bulish bolalar psixologiyasiga bolalar psixik tarakkiyotini urganishda va «tabiiy zot» bulib tugilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bulib etishini urganish tugri yul topishga yordam beradi.

Bolalarda psixik jixatdan tarakkiy etish muammosini urganish falsafa uchun xam kata axamiyatga ega. Ma'lumki, bilish nazariyasi va dialektika konuniyatlarining tarkib topishida lozim bulgan bilim soxalarini sanab kursatar ekan, psixologiyaning uch soxasini «bolalarning aqliy rivojlanish tarixi, xayvonlarning aqliy rivojlanish tarixi, til tarixi, psixologiya, sezgi organlari fiziologisi»ni kursatgan. Demak bolalar psixologiyasi bolalar psixikasining tarakkiy etishi tarixi va konuniyatlarini urganib filosofiyaning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Kuzatish metodi. Bolalar psixologiyasida sub'ektiv kuzatish metodidan deyarli foydalanilmaydi. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlaridan biri – ob'ektiv, ya'ni bolalarni tashkaridan kuzatib urganish metodidir. Tarbiyachi yoki tekshiruvchi psixolog bolalarning turli xil faoliyatlarini tabiiy sharoitda sistemali tarzida kuzatiladi. Bunda bolalarning xulk-atvorlari, xatti-xarakterlariga doir xarakterli momentlarni kayd kilib boradi. Xar kanday kuzatishning anik maksadi bulishi kerak.

Boshkacharak kilib aytganda, tarbiyachi bolalarning xulk-atvori yoki xatti-xarakterlariga doir nimalarni kuzatmokchi ekanini oldindan aniklab olishi kerak. Masalan, bolalar dikkatining barkarorligini yoki tafakkur jarayonlari bilan boglik bulgan analiz kila olish kobilyatlarini kuzatishni oldindan boshlab olish mumkin.

Shuni esdan chikarmaslik kerakki, kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, bolalar uzlarining kuzatilayotganliklarini mutlako bilmasliklari kerak. Kuzatishni bolalar urgangon tarbiyachining uzi kuzatgani ma'kul.

Tarbiyachidan bolalar xadiksiraydilar, uz xatti-xarakterlarini tabiiy sharoitda bemalol namoyon kila beradilar. Agar kuzatishni bolalar kuzi oldida begona odam utkazsa, bolalarning xatti-xarakteridagi tabiiylik buziladi.



Ularning xulk-atvorlari va xatti-xarakatlarini begona kishi kuzatishiga tugri kelsa, u vaktida yashirin kuzatish metodlaridan foydalanish lozim. Bunda kuzatuvchi bolalarga kurinmaydigan joydan turib kuzatadi. Bolalar psixologiyasida kuzatish metodidan foydalanilganda, bolalarning turli uyin faoliyatlari, didaktik mashg'ulotlari va kurish-yasash xamda ijodiy mashg'ulotlarida xilma-xil psixik jarayonlarining namoyon bulishi va kancha davom etishi kabi momentlarni kayd kilish mumkin.

Bundan turli yoshdagi bolalarni bir-biriga takkoslab, ulardagi psixik jarayonlarning tarakkiyoti urganiladi. Kuzatish metodi – uzluksiz va bu faoliyatni tanlab vakti-vakti bilan urganilganda ularning barcha fe'l-atvorlari va xatti-xarakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks xolda urganiladi.

Uzluksiz kuzatish bir necha kun yoki necha oy davomida davom etgandan sung tuplangan ma'lumotlar analiz kilinib, bolaga psixologik xarakteristika kuzatiladi. Vakti-vakti bilan tanlab kuzatilganda bolaning barcha xulk-atvori va xarakterlari emas, balki fakat ma'lum xarakatlari, ya'ni dikkati yoki xotirasi, yo bulmasa, uning nutki bilan boglik bulgan tomonlari urganiladi.

Bolalar psixologiyasida kuzatish metodining aloxida turi -bolalar tarakkiyotini sistemali tarzda kundaliklar tuzib urganishdan iborat. Bolalarning psixik tarakkiyotlari xakida kundaliklar tuzib urganish yakindagina rasmiy tusga kirgan.

Bola tarakkiyoti xakidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr kilingan . Undan sung nemis psixologi V.Shtern va yana psixologlardan N.N.Ladigina Kots, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina, va boshkalar bolalarning psixik tarakkiyoti yuzasidan sistemali tarzda olib borgan uz kundaliklarini nashr kilganlar. Bolalar psixik tarakkiyotini urganishda kullaniladigan kuzatish metodi tashkaridan karaganda juda osondek tuyulsa-da, odamdan juda kup vakt va bilim talab kilingan murakkab metoddir. Bolalar psixologiyasida keng kullanadgan ikkinchi metod – eksperiment metodidir. Eksperiment metodi – kuzatish metodiga nisbatan faol metod xisoblanadi. Agar kuzatish metodida u yoki bu psixik jarayonni kayd kilish uchun psixolog shu psixik jarayonning kachon va kanday sharoitda paydo bulishini poylab yursa, eksperiment metodi esa mutlako buning aksidir.

Eksperiment metodida u yoki bu psixik jarayon yuzaga keladigan sharoitni tekshiruvchi psixologning, ya'ni ekperimentatorning uzi tashkil kiladi. Bunda eksperimentator urganayotgan psixik jarayonlarni bolalarda bir necha marta yuzaga keltirib urganadi. Biz umumiy psixologiyadan bilamizki, eksperiment metodi 2 xil buladi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.

Bolalar psixologiyasida eksperimentning xar ikkala turidan keng foydalaniladi. Birok, bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning uziga xos tomoni shundaki,



maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida utkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda utkaziladigan eksperimentning unchalik farkiga bormaydilar.

Xar ikkala xolda xam tajribalar vazifa tarzida emas, balki uyin tarzida utkazilsa natija yaxshi chikadi. Masalan: kichik va urta gurux yoshidagi bolalarga biri ikkinchisidan bir oz uzunrok bulgan tayokcha kursatilib, ulardan kaysi biri uzunrok ekanligini suralsa, bolalar xech e'tibor bermay, tasodifan bittasini kursataveradilar.

Agar bunday farqlash ularning uyinlariga aylantirilsa, bolalar darxol e'tibor bilan karaydilar. Chunonchi, uzunrok tayokchani xarakat kilib, uyinga tushadigan ayikcha yoki kuchukchanning mexanizmiga tirab kuyilsa, kiskarok tayokchani uzunrok tayokchanning oldiga tashlab, bolalarga uzunrok tayokchani topsangiz ayikcha uyinga tushadi, deyilsa diqqat-e'tibor bilan karab uzun tayokchani topadilar.

Eksperiment metodidan guruxlarda utkaziladigan mashgulot paytida keng foydalanish mumkin. Masalan, turli yoshdagi bogcha bolalari bilan utkaziladigan didaktik mashgulotlarda tabiiy eksperiment metodini kullash mumkin. Bunda bolalarga xar-xil xayvonlar (ot, sigir, kuy, echki, tuya kabi), parrandalar (kaptar, xuroz, tovuk, karga, zagizgon, ukki, kurka), mevalar (gilos, olcha, olxuri, olma, nok, bexi) kabi, sabzavotlar (piyoz, sholgom, sabzi, kartoshka, karam, kovok, sarimsok, piyoz kabi) tasvirlangan rasmlari kartochkalarni aralash xolda berib, ularni guruxlarga ajratishlarida ularni umumlashtirish xususiyatlarini urganish mumkin.

Odatda, gurux sharoitida utkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi.

Kontrol(nazorat) guruxda esa bu mashgulotlar odatdagi eskicha metod bilan davom ettirilaveradi. Bir-ikki oydan sung xar ikkala guruxdagi bolalarning uzlashtirishlari takkoslab kuruladi. Agarda eksperimental gurux bolalarning yangicha metod bilan uzlashtirishlari nazorat guruxdagi bolalarning uzlashtirishlaridan ancha samarali bulib chiksa, bu metod boshka xamma bolalarga tarkatiladi. Bordi-yu natija nazorat guruxdagi bolalarning uzlashtirishlaridan yomon, ya'ni past chiksa, yangicha metod(usul) bilan mashgulot utkazish darxol tuxtatiladi.

Kuzatish va eksperiment asosiy metodlar xisoblanadi, lekin bulardan tashkari bir kator yordamchi metodlar xam mavjud. Masalan: faoliyat maxsulotlarini uranish metodi, sotsiometrik va test metodlari. Faoliyat maxsulotlarini uranish metodi xakida gap borar ekan, shuni aytish kerakki, bolalar xam juda katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashgul buladilar. Katta odamlar boshka odamlar uchun kerak buladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chikarish faoliyati bilan band bulsalar, bolalar uz faoliyatlarida deyarli ijtimoiy foydali mexnat bilan shugullanmaydilar.

Bogcha yoshidai bolalarning faoliyatlari – uyin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biror narsa yasash, applikatsiya, kurish-yasash va shu kabilardan iborat bulishi mumkin.



Bolalar odatda, katta kishilarning topshirik va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim xollardagina bolalarning uzlari mustakil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Xar ikki xolatda xam bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega buladi. Kupincha bolalar faoliyatining maxsuloti ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsaga karab urganiladi.

Kupincha bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va ongida yuzaga kelayotgan turli tasavvurlar xamda atroflaridagi narsa va xodisalarga bulgan munosabatlarida uz ifodasini topadi.

Ana shu jixatdan bolalarning chizgan rasmlaridan faoliyat maxsulotini uranish sifatida foydalanish maksadga muvofikdir.

Turli yoshdagi bolalarning ishlagan rasmlarini analiz kilish orkali ularning ayni chogdagi extiyojlarini, mayl-istaklari, kizikishlari, kobiliyati va layokatlarini urganish mumkin. Shu sababli, bu metoddan xam bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

Surash – suxbat metodidan bolalar psixologiyasida ancha cheklangan xolda foydalaniladi.

Bu metodni bogcha yoshidagi bolalarga nisbatan deyarli kullab bulmaydi, chunki bu yoshdagi bolalarda turmush tajribasi juda oz, tafakkurlari xali yaxshi rivojlanmagan buladi. Shu sababli kichik yoshdagi bolalar kattalarning bergan savollariga uylamay-netmay javob kaytaraveradilar.

Surash metodidan foydalanilganda odatda juda sodda ishlangan ayikchalar, uzok va yakin kilib ishlangan uylar va daraxtlar va x.k. Bolalardan kaysi ayik katta, kaysi ayikcha kichik yoki kaysi uy uzok, kaysi uy yakin deb suraladi.

Besh-olti yoshli bolalarga nisbatan suxbat metodini kullash mumkin. Bunda bolalar bilan utkaziladigan suxbatning mavzusi va suxbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab uylab olinadi.

Tayyorgarsizlik tusatdan utkazilgan suxbatdan yaxshi natija chikmaydi. Suxbat metodi orkali bogcha yoshidagi katta bolalarning bilimlarini, narsa va xodisalar xakidagi tasavvurlarni aniklash va tevarak-atrofdagi odamlar xamda turli narsalarga bulgan munosabatlarini urganish mumkin.

Bolalar psixologiyasida sunggi yillarda kullana boshlagan metodlardan biri, test metodidir. Test suzi inlizcha suz bulib, u ulchash degan ma'noni bildiradi.

Test metodi orkali bolalarning umumiy akliy tarakkiyot darajalari va ayrim psixik jarayonlarning (tafakkur, xayol, xotira kabi) kanchalik rivojlanganlik darajasi aniklab, takkoslanadi. Test metodi boshka metodlarga karaganda ancha universal metod xisoblanadi. Test metodi yordamida bolalarning uz yoshlariga nisbatan normal tarakkiy etganliklari yoki orkada kolganliklarini xam aniklash mumkin.





Masalan, test metodidan-bolalarga topshiriladigan vazifalari bir necha variantda bulib, ular kuchlari etgan variandagi vazifalarni bajaradilar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Nishanova Z. va Alimova G.: "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi": M: Toshkent-2006 yil: 4- bet.

2.Nishanova Z.T, Kamilova N.G, Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X.: "Riyojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya". M: Toshkent-2018; 1-bet.

3.Nishanova Z.T; ALIMOVA G.F; Turg'unboeva A.G'; Asranboeva M.X. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" M: Toshkent-2017; 23 bet.

